

O'QUVCHILARDA KASBIY TANLOV NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.D.Abdulmadjidova – *assistent o'qituvchi*

Andijon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kasbiy tanlov, psixologik xususiyatlar, kasbiy moyillik, akademik motivatsiya, o'quvchilar, kasbga yo'naltirish, psixologik yordam, shaxsiy rivojlanish, metodika, diagnostika.

Ключевые слова: профессиональный выбор, психологические особенности, профессиональная направленность, академическая мотивация, учащиеся, профессиональная ориентация, психологическая помощь, личностное развитие, методика, диагностика.

Key words: career choice, psychological characteristics, career inclination, academic motivation, students, career guidance, psychological support, personal development, methodology, diagnostics.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda kasb tanlash jarayoni nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. O'quvchilar uchun kasbiy tanlov – bu ularning hayotiy yo'nalishini belgilovchi asosiy bosqich bo'lib, bu jarayonning psixologik jihatlarini chuqur o'rganish zarur. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidiga ko'ra: “Yoshlarimizning kasb-hunar egallashi, ularning intellektual salohiyatini to'g'ri yo'naltirish – bu davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biridir” [1:1] Yangi O'zbekistonda ham o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Zero to'g'ri qobiliyat, qiziqish, motiv va maqsadlar asosida tanlangan kasb egasi nafaqat mukammal shaxs, jamiyat uchun kerakli kadr, uning rivojida munosib xissa qo'shuvchi fuqaro eng asosiysi baxtiyor mustaqil shaxs sifatida kamol topadi. Rivojlangan davlatlarda, masalan, Germaniya, Yaponiya va AQShda o'quvchilarning kasbiy yo'nalishini aniqlash uchun maxsus dasturlar, psixologik testlar va maslahat xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Bu tajribalar o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlariga mos kasb tanlashiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonlik olimlar ham kasbiy tanlovning psixologik jihatlarini chuqur o'rganib kelmoqdalar bulardan E.G.Goziyev, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Z.Abdurahmonova, F.A.Akramova, R.I.Sunnatova, N.S.Safoyev, D.Axmedova, N.X.Xolyigitova N.Bekmurodova kabi olimlar rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda munosabatning ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlari ishlarida atroflicha tahlil qilingan. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, turli tadqiqotchilar o'quvchilarning kasbiy tanlov jarayonini aks ettiruvchi xususiyatlarni – xususan, ularning kasbiy qobiliyatlari, moyilliklari va qiziqishlarini aniqlash orqali bu jarayonning mexanizmlarini o'rganishga katta e'tibor qaratgan. Shunga qaramay, mazkur fenomen o'zining murakkab va ko'p qirrali tabiati bilan ajralib turadi hamda turli nuqtayi nazardan talqin qilinadi. Bu esa kasb tanlash va kasbga yo'naltirish masalalari zamonaviy davr uchun yangilik emas, balki uzoq yillardan beri ilmiy

izlanishlar markazida bo'lib kelayotgan dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot O'zbekistondagi umumiy o'rta ta'lim maktabida 16-18 yoshdagi 120 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqotda ushbui metodikalardan foydalanildi. G.V.Rezapkina – “Shaxs kasbiy moyilligini aniqlash so'rovnomasi” o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlashda muhim vosita sifatida xizmat qildi [2:2-3] Hollandning “Kasb tiplarini aniqlash” metodikasi orqali o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlariga mos kasb turlari belgilandi [3:6]. A.D.Ishkov – “O'z-o'zini tashkil etish xususiyatlarining diagnostikasi”. Gerbachevskiy – “Intilish darajasi” testi. T.O.Gordeyeva, O.A.Sechev va E.N.Osin – “Akademik motivatsiya shkala”si [4:27]. O'quvchilar kasbiy tanlovni aniqlovchi psixologik so'rovnoma” (mualliflik metodikasi).

Natija va muhokama: O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki O'quvchilarda kasbiy moyillik darajalari yuqori, o'rta va quyi shkalalarda aniqlandi. (**Jadval 1.**) Bunda 120 nafar respondentlarda yuqori - ko'rsatkichlar 45 nafar o'quvchilar 37.5% ni tashkil etdi. O'rta ko'rsatkichlar 50 nafar o'quvchilarda 41.7 % ni tashkil etdi. Past ko'rsatkichlar 25 nafar 20.8 % ni tashkil etdi.

Jadval 1. O'quvchilarning kasbiy moyillik darajalari

Kasbiy moyillik darajasi	O'quvchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	45	37.5
O'rta	50	41.7
Past	25	20.8

Shuningdek o'tkazilgan tadqiqotimizda o'quvchilarda akademik motivatsiya darajalari (yuqori, o'rta va past) ham o'rganilganda yuqori motivatsiya darajasi 48 nafar o'quvchida 40%, o'rta daraja 52 nafar o'quvchida 43.3 %, 20 nafar o'quvchida 16.7 % o'quvchilarda aniqlandi.

Jadval 2. Akademik motivatsiya darajalari

Motivatsiya darajasi	O'quvchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	48	40.0
O'rta	52	43.3
Past	20	16.7

Diagramma 1. Kasbiy moyillik va akademik motivatsiya darajalarining taqqoslanishi




Diagramma tahlili. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, kasbiy moyillik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda akademik motivatsiya darajasi ham yuqori. Xususan, 37.5% o‘quvchilarning kasbiy moyilligi yuqori bo‘lib, bu guruhda 40% o‘quvchining akademik motivatsiyasi ham yuqori darajada bo‘lgan. O‘rta darajadagi kasbiy moyillikka ega o‘quvchilar (41.7%) bilan o‘rta motivatsiyaga ega o‘quvchilar soni (43.3%) deyarli mos keladi. Past darajadagi kasbiy moyillik (20.8%) past akademik motivatsiya (16.7%) bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu raqamlar kasbiy yo‘nalish aniqligi o‘quvchining o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ishtiyoqiga ham kuchli ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, o‘quvchilarni o‘ziga mos kasbga yo‘naltirish orqali ularning umumiy o‘quv motivatsiyasini oshirishga erishish mumkin.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning kasbiy moyillik darajalari akademik motivatsiya bilan uzviy bog‘liq. Yuqori darajadagi kasbiy moyillikka ega bo‘lgan o‘quvchilarda akademik motivatsiya darajasi ham yuqori bo‘lgan.

Muhokama. “Kasbiy tanlovni shakllantirishda ijtimoiy determinantlariga misol qilib ushbularni keltirdik. Oila va atrof-muhit Ota-onalar, aka-uka yoki opa-singillar, va boshqa yaqinlar o‘quvchilarning kasbiy tanlovlariga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ota-onalar ko‘pincha o‘z kasbiy tajribalari va qadriyatlarini orqali bolalarining tanloviga yo‘nalish beradilar” [4:28]. Ota ona kasbi, istagi, davati orqali bola kasbiy tanlovni amalga oshirishi oila va ona onaning kasbiy tanlovdagi ijtimoiy ta’sirlarga misol bo‘la oladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2022.
2. Резапкина Г. В. Психодиагностика. – Москва: 2005.
3. Holland J.L. Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments. 3rd ed. Psychological Assessment Resources. – Odessa: «PAR», 1997.
4. Abdulmadjidova M.D. O‘quvchilarda kasbiy tanlovni rivojlantirishning psixologik va ijtimoiy determinantlari. // Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti Ilmiy xabarnomasi, Ilmiy-amaliy jurnal. Buxoro 2025 №1, 26-28-b.
5. Abdulmadjidova M.D. Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarni psixotiplariga qarab kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish nazariy va amaliy jihatlari. // Inter education & global study. 2024, №10, 412-418b.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy tanlov o‘quvchilar uchun motivatsion, shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, kasbiy moyilligi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar o‘z maqsadlariga aniq yo‘naltirilgan, mustaqil qaror qabul qilishga moyil bo‘ladilar. Akademik motivatsiya darajasi ham kasb tanloviga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Kasbiy yo‘nalishga ega o‘quvchilar o‘z-o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini baholash va hayotiy maqsadlarni aniqlashda faolroq bo‘ladilar. Bu esa, ta’lim tizimida psixologik yordam xizmatlarining ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi.

Xulosa va tavsiyalar Kasbiy tanlov o‘quvchi shaxsining shakllanishida asosiy jarayonlardan biridir. Psixologik diagnostika va maslahat xizmatlari orqali o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlariga mos kasbga yo‘naltirish mumkin. Shu sababli quyidagi tavsiyalarni beramiz: Maktab psixologlari uchun kasbiy tanlovni aniqlovchi metodikalar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish. Har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasida kasbiy yo‘naltirish markazlarini yaratish. Ota-onalarni farzandlarining qobiliyatlarini rivojlantirish va kasb tanlash jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish. Bu jarayonda ota-onalar va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi ham katta ahamiyatga ega. Zero “...o‘qituvchilar va psixologlar o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlab, ularga individual maslahat va amaliy mashg‘ulotlar orqali kasb tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari kerak” [5:417]. Bu kabi ishlar o‘quvchilarni kasb tanlash jarayonida ongli qaror qabul qilishga, o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglashga, bozor talablariga mos kasbni tanlashga va kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishga yo‘naltiradi. Shuningdek, bunday tizimli yondashuv o‘quvchilarda mas’uliyat hissini, tashabbuskorlikni va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kasbiy tanlovda psixologik ko‘makning mavjudligi o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini osonlashtiradi, stress darajasini kamaytiradi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Natijada, jamiyatda o‘z kasbidan rozi, motivatsiyalangan va samarali faoliyat yurituvchi shaxslar shakllanadi.

REZYUME. Mazkur maqolada o'quvchilarda kasbiy tanlov jarayonining psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Kasbiy tanlovning shaxsiy rivojlanish, akademik motivatsiya va ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 16–18 yoshdagi 120 nafar o'quvchi ishtirokida bir qator psixologik metodikalar yordamida kasbiy moyillik va akademik motivatsiya darajalari aniqlangan. Natijalar kasbiy moyillik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda akademik motivatsiya darajasi ham yuqori bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Muallif psixologik diagnostika va maslahat xizmatlari orqali o'quvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirish zarurligini ta'kidlaydi hamda ushbu jarayonda maktab psixologlari va ota-onalarning o'rni muhim ekanligini asoslab beradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье исследуются психологические особенности процесса профессионального выбора у учащихся. Анализируется взаимосвязь профессионального выбора с личностным развитием, академической мотивацией и социальными факторами. В ходе исследования с участием 120 учеников в возрасте 16-18 лет с использованием ряда психологических методов были определены уровни профессиональной направленности и академической мотивации. Результаты показали, что у учащихся с высоким уровнем профессиональной направленности также наблюдается высокая академическая мотивация. Автор подчеркивает необходимость профессионального ориентирования учащихся с помощью психологической диагностики и консультационных услуг, а также обосновывает важную роль школьных психологов и родителей в этом процессе.

SUMMARY. This article explores the psychological characteristics of the career choice process among students. The interrelation between career choice, personal development, academic motivation, and social factors is analyzed. The study involved 120 students aged 16–18 and applied several psychological methods to assess their levels of career inclination and academic motivation. The results indicated that students with a high level of career inclination also demonstrated high academic motivation. The author emphasizes the necessity of guiding students toward suitable careers through psychological diagnostics and counseling services and highlights the critical role of school psychologists and parents in this process.

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA AVLODLAR TASNIFI

P.Abibullaeva – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: avlodlar nazariyasi, “BB” (Bebi-Bumerlar) avlodi, “X” avlod, “Y” avlod (milleniallar), “Z” avlod (zumerlar), shaxslilik sifatleri, ustuvor qadriyatlar.

Ключевые слова: теория поколений, поколение “BB” (Бэби-бумеры), поколение “X”, поколение “Y” (миллениалы), поколение “Z” (зумеры), личностные качества, приоритетные ценности.

Key words: generation theory, “BB” generation (Baby Boomers), “X” generation, “Y” generation (Millennials), “Z” generation (Zumers), personal qualities, priority values.

Kirish. Bugun dunyoning o'zgarishi tezlashmoqda, avlodlar o'rniga yangi avlodlar kelmoqda, ular yangi g'oyalar, qadriyatlar va hayotga turli qarashlarni olib kelmoqda. Har bir avlodning o'ziga xos dunyoqarashi, hayotga munosabati, vazifasi va o'ziga xos bir-biridan farqli jihatlari mavjud. Bu oila, ijtimoiy hayot, dunyoqarash va kasb kabi turli omillar tasirida shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili. Oxirgi yillarda avlodlar almashinuviga ilm-fanning ham qiziqishi ortib, mazkur jarayon olimlarimiz tamonidan chuqur o'rganilmoqda. “Avlod” tushunchasini nazariy jihatdan tadqiq etgan xorij olimlaridan Uilyam Strauss va Nil Xou [1], Massey Morris [2] va mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan V.I.Pishik [3], A.V.Gavrilova [4], I.P.Dyachenko [5] va boshqalarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Shuningdek, turli avlod vakillariga doir ma'naviy meros va unga avlodlararo munosabat mahalliy olimlarimiz M.Bekmurodov [6], S.Kalanova [7], N.Dalimova [8] tadqiqotlarida o'rganilgan. Shuningdek, N.Umarovning “Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuvi jarayonining transformatsiyalashuvi: avlodlar nazariyasidan amaliyot sari” maqolasida avlodlar tasnifiga ko'ra shaxsning muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashuvga zamin bo'layotgan ustuvor qadriyatlari va ushbu jarayonga to'siq bo'layotgan

omillar mazmuni yoritilgan. Ular “avlod” tushunchasiga demografik, antropologik, tarixiy, xronologik va ramziy tomondan ta'rif berishga harakat qilishgan. Bunga V.I.Pishik quyidagicha: “bir vaqtning o'zida tug'ilgan, dunyo bo'ylab o'xshash manzara, turmush tarzi orqali birlashgan, aloqa strategiyalari mos keluvchi, fikrlash uslublari bir xil, umumiy madaniy kelib chiqish va tarixiy rivojlanish holati yaqin odamlarning ijtimoiy guruhi – **avloddir**”, – deb ta'rif beradi [9].

Internet ma'lumotlarida avlod mavzuga oid ko'plab maqolalarni topish mumkin.

Tahlil va natijalar. Keng qamrovli nazariy tahlillarga ko'ra, har bir avlod o'ziga xos xususiyatga ega va avlodlarni toyfalash turli yillar oralig'idagi davrlarga bo'lingan. Buning sababi sifatida, bir avlodning tug'ilgan yillari geografiyasiga qarab farq qilishini yoki bir avlodga asosiy voqealarning turli mintaqalarda va mamlakatlarda har xil ta'sir qilishini ko'ramiz. Chunki, mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalari turli vaqtlar oralig'ida turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, real hayotda avlodlar o'rtasidagi vaqt chegaralari mintaqaning geografik, siyosiy va iqtisodiy holatiga qarab biroz farq qilishi mumkin [9].

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi mintaqasida mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalarini